

**“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)**

**“O‘ZBEKISTON TARIXI” FANINI O‘QITISHDA INNOVATSIYALAR VA  
ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH**

**Xaydarov Zaxriddinbobir Umarovich**

Namangan davlat pedagogika instituti

“Falsafiy va tarixiy fanlar” kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi

[zahriddinbobirhajdarov@gmail.com](mailto:zahriddinbobirhajdarov@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19492739>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar hamda o‘quvchi markazli yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, “Blits o‘yin”, “Bumerang”, “Sinkveyn”, “Qora quti”, “Loyiha” va “Rezyume” kabi metodlarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Maqolada innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston tarixi, innovatsion ta’lim, interaktiv metodlar, pedagogik texnologiyalar, o‘quvchi markazli ta’lim, xorijiy tajriba, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, ta’lim samaradorligi.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы использования инновационных педагогических технологий и передового зарубежного опыта в преподавании дисциплины «История Узбекистана». Освещается значение интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий и студентоцентрированного подхода в образовательном процессе. Также показана роль методов «Блиц-игра», «Бумеранг», «Синквейн», «Черный ящик», «Проект» и «Резюме» в повышении эффективности обучения. Обосновывается, что инновационные подходы способствуют развитию самостоятельного мышления студентов, углубленному усвоению знаний и повышению качества образования.

**Ключевые слова:** история Узбекистана, инновационное обучение, интерактивные методы, педагогические технологии, студентоцентрированное обучение, зарубежный опыт, ИКТ, эффективность образования.

**Annotation:** This article examines the use of innovative pedagogical technologies and advanced foreign experience in teaching the subject “History of Uzbekistan.” The importance of

**“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)**

*interactive methods, information and communication technologies, and student-centered approaches in the educational process is highlighted. The role of methods such as “Blitz game,” “Boomerang,” “Cinquain,” “Black box,” “Project,” and “Resume” in improving learning effectiveness is discussed. The article substantiates that innovative approaches contribute to the development of independent thinking, deeper knowledge acquisition, and improvement of education quality.*

**Keywords:** *History of Uzbekistan, innovative education, interactive methods, pedagogical technologies, student-centered learning, foreign experience, ICT, education effectiveness.*

Mustaqillik sharoitida jamiyatdagi yangi islohotlarni amalga oshirish jarayonida, jamiyat a’zolarini erkin, demokratik tafakkur va milliy g’oya ruhida tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining ahamiyati ortib bormoqda. Istiqlol yillarida O’zbekiston tarixining ko’pgina masalalari o’zining yangi, ilmiy jihatdan xolis va haqqoniy yechimini topa boshladi. O’zbekiston mustaqillikka erishgach, o’zbek xalqi o’zining boy va qadimiy tarixini qaytadan kashf etish imkoniga ega bo’ldi. “O’zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og’ir sinovlar bo’lganini barchamiz yaxshi bilamiz”[1]. Mana shu sinovlarga boy o’tmish, mana shu so’nmas madaniyat o’zbek xalqini buyuk va yorqin kelajak sari odim qadam tashlashga, qiyinchilik va sinovlarni yengib o’tishga undaydi, mushtarak maqsadlar yo’lida birlashtiradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, mustaqillik xalqimizga o’zligini qaytarib berdi. Buning natijasi o’laroq, hukumatimiz tomonidan iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda ijtimoiy, xususan, ilm-fan sohaslarini rivojlantirishga katta e’tibor berildi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan “2017 – 2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasi” [2] ning to’rtinchi yo’nalishida ta’lim va fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish vazifalarining belgilanishi fikrimizning yaqqol misolidir.

Ijtimoiy hayot jabhalariga innovatsion jarayonlarning jadallik bilan kirib kelishi oliy ta’lim tizimida o’qitishning yangi texnologiyalariga o’tish orqali ta’lim-tarbiya samaradorligini sifat jihatidan yuqori pog’onaga ko’tarish uchun qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirmoqda. Ayni vaqtda mamlakatimizda axborotlashtirish sohasida sodir bo’layotgan innovatsion jarayonlar (kom’pyuterlashtirish, lokal va internet tarmoqlari orqali axborot almashinuvining kengayishi va rivojlanishi) ta’lim tizimining eng muhim bo’g’ini bo’lgan ta’lim jarayoni oldiga yangi muammolarni qo’yimoqda. Chunki shu vaqtgacha an’anaviy ta’lim berish jarayonida o’quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni o’zlashtirishga o’rgatilgan bo’lsa, innovatsion jarayonlar va

**“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)**

zamonaviy axborot texnologiyalari o’quvchi-talabalarni egallayotgan bilimlarni o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib tahlil qilishlariga, xulosalarni ham o’zlari chiqarishlariga o’rgatadi. Bu esa o’quvchi-talabalarni ta’lim jarayonining doimiy diqqat markazida turishini taqozo etadi. O’z-o’zidan ravshanki, jarayon asta-sekinlik bilan o’quvchi-talabani o’z ustida ishlashga, ma’lumotlarni izlab topishga, tahlil qilish va lozim bo’lganda o’z xulosalarini chiqarishiga rag’batlantiradi. Milliy ta’lim tizimining asosiy maqsadi ham o’quvchilarda bilim olishga bo’lgan intiluvchanlikni, tashabbuskorlikni rivojlantirishdan iboratdir. Bir so’z bilan aytganda, ta’lim o’quvchilarning ichki ehtiyojiga aylanmasa, ular bu jarayonda faol ishtirok etmasalar, hech qanday ijobiy samaraga erishib bo’lmaydi. Shu nuqtai nazardan milliy ta’lim tizimi o’quvchi-talabalarni ta’lim jarayonining ishtirokchilarigina emas, balki ijrochilari deb qarashni ham ko’zda tutadi.

Bu yangilanishlar ta’lim jarayonida an’anaviy yondashuvlar bilan bir vaqtda o’quvchi markazda bo’lgan (faol, interfaol yoki interaktiv) metodning keng miqyosda, samarali tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratadi. Dars jarayonini tashkil qilishda bu kabi metodlardan foydalanilganda o’qituvchi o’quvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Bu orqali o’quvchi-talaba butun jarayon davomida faol ishtirok etadi. Shu sababdan, o’quvchining bilim va ko’nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli darajada o’quvchilar ishtiroki va amaliyoti mavjud bo’ladi. Bu jarayonda ta’lim beruvchi shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun sharoit yaratish bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik vazifasini ham amalga oshiradi. O’qituvchi biror predmet bo’yicha o’quvchilarning tizimli bilim olishini ta’minlash maqsadi sari intilar ekan, ma’lum ishlarining bajarilish namunasini ko’rsatadi. Ayni vaqtda, u ta’limning barcha bosqichlarida o’quvchining faolligi va mustaqilligini ta’minlaydi.

So’nggi vaqtlarda ta’lim tizimida “noan’anaviy dars”, “interaktiv metod”, “yangi pedagogik texnologiyalar”, “ilg’or pedagogik texnologiyalar”, kabi tushunchalar tez-tez qo’llanilishi odatiy holga aylandi. Turli darajadagi anjumanlar, seminarlar va ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’lum bir pedagog-o’qituvchilarning ushbu usul (metod)lar orqali mashg’ulotlarni tashkil etayotganligi, samarali natijalarni qayd etayotganligi, tajriba oshirish kurslari tashkil etilayotganligi to’g’risidagi xabarlariga duch kelmoqdamiz. Biroq shuni ta’kidlash kerakki, bu tushunchalar ta’lim tizimi, ayniqsa, oliy ta’lim tizimi pedagog-o’qituvchilari tasavvurida turli darajada talqin etilmoqda. Buning asosiy sababi esa lo’nda qilib aytganda, mashg’ulotni yangicha asoslarda va tartibda, zamon talablari darajasida tashkil etish sharti qo’yilmoqda, afsuski, uning kontseptual-nazariy, uslubiy va pedagogik sharoitlari, ilmiy-metodik yo’nalishlarini aniq bir tizimga solish, tarkiblashtirish borasida yetarlicha ishlar amalga oshirilgani yo’q. Bu boradagi eng muhim yo’nalishlardan biri fikrimizcha, interaktiv metod va ilg’or

**“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)**

pedagogik texnologiyaning afzalliklari hamda asosiy jihatlarini pedagog-o’qituvchilar tomonidan anglanishi hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, bugungi kunda mamlakatimiz oliy o’quv yurtlarining aksariyat qismida O’zbekiston tarixini o’qitish jarayonida ta’limning o’qituvchi markazda bo’lgan metodlari qo’llanib kelinmoqda. Ushbu usullar orqali ta’lim berish jarayonida takidlab o’tilganidek, o’quvchilarning ishtiroki faol bo’lmay, ayrim ta’lim usullaridagina ularning ishtiroki qisman ta’minlanadi. Shunda ham o’quvchilar sezgi xususiyatlarining ma’lum bir, cheklangan qismi jarayonga jalb etiladi, xolos. Bu esa o’quvchilarning yangi yoki ma’lum bo’lmagan bilimlarni, ma’lumotlarni o’zlashtirishlarida o’z imkoniyatlaridan to’laqonli foydalanishlari uchun imkoniyat yarata olmaydi.

O’zbekiston tarixini o’qitish jarayonida o’quvchi markazda bo’lgan (faol, interfaol yoki interaktiv) metodlarning hamda ilg’or pedagogik texnologiyaning keng miqyosda qo’llanilishining afzalliklari quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo’lgan o’qish-o’rganish;
- o’quvchini yuqori darajada rag’batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimni ham e’tiborga olinishi;
- o’qish shiddatini o’quvchining ehtiyojiga muvofiq lashtirilishi;
- o’quvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo’llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o’rganilishi;
- ikki taraf lama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi;
- ta’lim jarayonining sog’lom muhitda saqlab qolinishi;
- o’qituvchining yengillik yaratib beruvchi shaxsga aylanishi.

Interaktiv metodlar qo’llanganda o’quvchi-talaba butun jarayon davomida faol ishtirok etadi. Shu sababdan, o’quvchining bilim va ko’nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli darajada o’quvchilar ishtiroki va amaliyoti mavjud bo’ladi.

Mutaxassislarining fikricha, bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida 600 dan ortiq nomlanishga ega bo’lgan faol va interfaol metodlar ta’lim jarayonida turli darajada qo’llanilmoqda. Ushbu metodlar orasida xorijiy mamlakatlarning ishlab chiqarish va ta’lim sohasida amalda qo’llanilayotgan metodlar ham sezilarli o’rin egallaydi.

Ushbu metodlarni ta’lim jarayonida qo’llashning yana bir afzalligi, o’qituvchining kreativ (ijodkor)ligiga ko’ra bu metodlarni talabalarning vazifani o’zlashtirish darajasi yoki talabalar o’zlashtirishini nazorat qilish va baholash yuzasidan talabalar bilan yakka tartibda(individual), guruhlarda yoki jamoaviy tartibda ishlashni amalga oshirish imkoniyati mavjud. Shuningdek,

**“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)**

Ushbu metod qo’llanilganda o’qituvchi tayyor bilimlarni talabalarga etkazib berish emas, balki, talabalarni o’zlariga kerakli bo’lgan bilim va yangi ma’lumotlarni izlab topishlari uchun imkoniyat yaratadi, ularni maqsad sari to’g’ri yo’naltirish vazifasini amalga oshiradi. Shu nuqtai nazardan dars mashg’ulotini samarali tashkil etish, ta’lim sifatining yuqori ko’rsatkichlariga erishishda pedagog-o’qituvchilardan ta’lim jarayoniga ijodiy yondashuv hamda o’z ustida ishlash ko’nikmalarini yuksaltirish talab etiladi.

Biz quyidagi o’qitish jarayonida qo’llash mumkin bo’lgan ba’zi bir treninglar (texnologiyalar)ga tavsifnoma berib, ba’zilarni belgilangan mavzu yuzasidan o’tkazish tartibi to’g’risida metodik tavsiyanoma berib o’tamiz.

**“BLITS O’YIN”** metodi – harakatlar ketma-ketligini to’g’ri tashkil etishga mantiqiy fikrlashga, o’rganayotgan predmeti asosida ko’p, xilma xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o’rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan qog’ozlarda ko’rsatilgan harakatlar ketma ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so’ngra o’z fikrini boshqalarga o’tkaza olish yoki o’z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo’la olishga yordam beradi[3].

**“BUMERANG”** texnikasi – o’quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o’rganilgan materiallarni yoddan saqlab qolish, so’zlab bera olish, fikrni erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o’quvchi talabalarni baholay olishga qaratilgan. “Bumerang” texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqli shakllantirishga, imkoniyat yaratadi; xotirani, g’oyalarni, fikrlarni, dallillarni yozma va og’zaki shakllarda bayon qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi[4].

**“SINKVEYN”** metodi – ta’lim oluvchilarni axborotlarni qisqa bayon etishga o’rgatadi, hamda olingan ma’lumotlar ustida chuqur ilanishga chorlaydi [5].

**“QORA QUTI”** metodi – o’quvchi-talabalar bu metod asosida echiladigan muammolar aniq vaziyatni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi, muammolar sababi yo’l-yo’lakay aniqlanadi[6].

**“LOYIHA”** metodi – ta’lim oluvchilarning inividual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo’yicha axborot yig’ish, tadqiqot o’tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar[7].

**“REZYUME”** metodi – o’quvchi-talabalarni biror mavzuning ijobiy va salbiy tomonilari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlarini belgilashni o’rganadi. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo’yicha bir yo’la axborot beriladi.

**“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)**

Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi[8].

O‘zbekiston tarixini o‘qitish jarayoni markazida o‘quvchi shaxsining birlamchiligini taminlashda bugungi kundagi eng muhim vazifa – hamkorlik pedagogikasini rivojlantirish orqali yangi axborotlarni o‘zlashtirish va baholashga qodir, kerakli qarorlar qabul qiluvchi, erkin fikrlaydigan barkamol shaxslarni shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda ta’lim beruvchi shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun sharoit yaratish bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini ham amalga oshiradi. O‘qituvchi biror predmet bo‘yicha o‘quvchilarning tizimli bilim olishini ta’minlash maqsadi sari intilar ekan, ma’lum ishlarning bajarilish namunasini ko‘rsatadi. Ayni vaqtda, u o‘qitishning barcha bosqichlarida o‘quvchining faolligi va mustaqilligini ta’minlaydi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida tajriba va kuzatuvlari asosida yangi bilimlarni o‘zlashtiradi. Ularga chuqur va mustaqil o‘zlashtirishlari, o‘rgangan bilimlarini amaliyotda ijodiy qo‘llashlari uchun maxsus topshiriqlar beriladi. Bu esa oliy o‘quv yurtlarida O‘zbekiston tarixidan mashg‘ulotlar olib boruvchi o‘qituvchilardan ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarga tayangan holda innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish mahoratiga ega bo‘lishni talab qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda oliy o‘quv yurtlarida O‘zbekiston tarixidan mashg‘ulotlar olib boruvchi o‘qituvchilardan ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarga tayangan holda innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish mahoratiga ega bo‘lishni talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга курамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 5.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси” ПФ-4947-сонли фармони // Халқ сўзи. – 2017. – № 28. – Б. 1-2.
3. Чошанов М. А. Гибкая технология проблемно-модульного обучения. – М.: Народное образование, 1996.
4. Толипов Ў. Талабаларда умуммехнат ва касбий малакаларни шакллантиришнинг психофизиологик асослари. // Халқ таълими. – № 6. – 1998. – Б. 44-48.
5. Олимов Қ. Т. ва бошқалар. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. – Т.: Фан, 2004.

**“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. I son (2026-yil, 1-aprel)**

6. Толипов Ў. Қ., Баракаев М., Шарипов Ш. “Касбий педагогика” (маърузалар матни). – Т.: ТДИУ, 2001.
7. Тожибоева Д. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. – Т.: Фан ва технология, 2007.
8. Гаффоров Я. Х. Махсус фанларни ўқитишда янги педагогик технологиялардан фойдаланиш усуллари. – Т.: Университет, 2008.